



MARKAZIY OSIYO VA KO'RFAZ ARAB DAVLATLARI MADANIY ALOQALARI (O'MON SULTONLIGI MISOLIDA)

NASIROVA Nilufar Yuldashevna

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti mustaqil izlanuvchisi

nilufarnasirova2017@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ko'rfaz arab davlatlari o'rtaqidagi aloqalar tahlil qilinadi. Ayniqsa, Ummon Sultonligining neytral tashqi siyosat strategiyasi asosida mintaqaviy hamkorlikda tutgan o'rni alohida o'rGANILADI.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Ko'rfaz mamlakatlari, Ummon Sultonligi, diplomatik neytrallik, mintaqaviy integratsiya, tashqi siyosat.

ВЗАИМООТНОШЕНИЯ МЕЖДУ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИЕЙ И АРАБСКИМИ СТРАНАМИ ПЕРСИДСКОГО ЗАЛИВА (НА ПРИМЕРЕ СУЛТАНАТА ОМАН)

Nasirova Nilufar Yuldashevna

Исследователь Ташкентского
государственного университета востоковедения

nilufarnasirova2017@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В этой статье анализируются отношения между странами Центральной Азии и арабскими странами Персидского залива. Особо будет изучена роль Султаната Оман в региональном сотрудничестве на основе нейтральной внешнеполитической стратегии.

Ключевые слова: Центральная Азия, страны Персидского залива, Султанат Оман, дипломатический нейтралитет, региональная интеграция, внешняя политика.

THE RELATIONSHIP BETWEEN CENTRAL ASIA AND THE ARAB COUNTRIES OF THE PERSIAN GULF (USING THE EXAMPLE OF THE SULTANATE OF OMAN)

Nasirova Nilufar Yuldashevna

Researcher at the Tashkent State University of Oriental Studies

nilufarnasirova2017@gmail.com

ABSTRACT

This article analyzes relations between the countries of Central Asia and the Arab countries of the Persian Gulf. The role of the Sultanate of Oman in regional cooperation based on a neutral foreign policy strategy will be particularly studied.

Keywords: Central Asia, Persian Gulf countries, Sultanate of Oman, diplomatic neutrality, regional integration, foreign policy.

KIRISH

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatida Ko'rfaz mintaqasi bilan aloqalarni rivojlantirishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston kabi davlatlarning BAA, Qatar, Saudiya Arabistoni va Ummon bilan hamkorligi kuchaymoqda. Ushbu jarayonda Ummon Sultonligi mintaqada o'zining betaraf va pragmatik tashqi siyosati orqali alohida e'tiborga sazovor bo'lib bormoqda. Mintaqaviy o'zgarishlar, transport va logistika muqobil yo'llarini izlash, shuningdek, diplomatik diversifikasiya O'monning Markaziy Osiyo bilan aloqalarini kengaytirishga undaydi.

O'mon tashqi siyosati uning boy madaniy va tarixiy merosiga, o'z jamiyatining qadimiy an'analari - shoshqoloqlikka yo'l qo'ymaslik va mo'tadillikka asoslanadi. Ushbu tamoyillar O'monning xalqaro va mintaqaviy nizolarga barham berish jarayonida o'ziga xos mediatorlik rolini o'ynaydigan davlatga aylantirdi.

"Nigoh-2040" milliy strategiyasida Sultonlikning tashqi siyosati kuchli iqtisodiy davlat qurishga ko'maklashishi belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, hozirgi kunda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilgan:

- mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun mintaqada xavfsiz va barqaror muhitni yaratish;
- dunyo bo'ylab mamlakat iqtisodiyotiga mos keluvchi yangi bozorlar, savdo sheriklarini topish hamda investorlarni jalb qilish;
- savdo va sanoat sohasidagi hamkorlarning qo'shma loyihibarini qo'llab-quvvatlovchi tizimni yaratish.

Ushbu yo'nalishlar mamlakatni barcha davlatlar bilan muloqotini yo'lga qo'yish va uzoq muddatli do'stlik aloqalarini o'rnatishni taqozo etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'mon Sultonligi O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini 1991-yil dekabrda tan olgan. 1992-yil 22-aprelda ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan.

2010-yil aprelda Toshkentda O‘mon Sultonligining elchixonasi o‘z faoliyatini boshladi. 2008-2018-yillarda Muhammad al-Lavatiy O‘monning O‘zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi sifatida (dastlab qarorgohi Islomobod shahrida, keyinchalik Toshkentda) ish olib bordi.

2019-yil aprelda Sultonlikning yangi tayinlangan elchisi Ahmad bin Said al-Kasiriy ishonch yorlig‘ini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevga topshirdi.

2009-yil 4-6 oktabr kunlari O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti davlat tashrifi bilan O‘mon Sultonligida bo‘ldi.

2007, 2008 va 2011-yillarda BMT Bosh Assambleysi yig‘ilishlarida ishtirok etish doirasida O‘zbekiston Tashqi ishlar vaziri va O‘mon Tashqi ishlariga mas’ul vazir o‘rtasida uchrashuvlar bo‘lib o‘tgan. 2008-yilda Nyu-Yorkda ikki davlat tashqi siyosat mahkamalari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlar to‘g‘risida Anglashuv memorandumi imzolangan.

2010-yil 13-17-may kunlari O‘mon Tashqi ishlarga mas’ul vazir Yusuf bin Alaviy O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida ikki davlat tashqi ishlar mahkamalari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 1-davrasi bo‘lib o‘tdi. Hozirgi kungacha maslahatlashuvlarning 6 ta davrasi o‘tkazalib, uning oxirgisi 2020-yil 19-avgustda video muloqot tarzida o‘tkazildi.

2016-yilning oktyabrdagi Toshkentda o‘tkazilgan Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida O‘mon Sultonligi Tashqi ishlar vazirining maslahatchisi Tolib Miran ar-Raysi ishtirok etdi.

Savdo-iqtisodiy aloqalar sohalarida moliyaviy-iqtisodiy jihatdan izchil rivojlanayotgan O‘mon Sultonligi bilan aloqalarni faollashtirish O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga molik.

2022-yil 18-yanvarda Hukumatlararo qo‘shma komissiyaning 4-yig‘ilishi onlayn shaklda o‘tkazildi.

2022-yilda ikki davlat o‘rtasidagi savdo aylanmasi hajmi \$4,2 mln.ga teng bo‘ldi (eksport - \$272,6 ming, import esa \$3,9 mln.).

Hozirgi kunda O‘zbekiston hududida O‘mon kapitali ishtirokida tashkil etilgan 2 ta korxona faoliyat yuritmoqda:

- MChJ “O‘zbek-O‘mon investision kompaniyasi” (Moliya va boshqaruv masalalari bo‘yicha marketing tadqiqoti o‘tkazish, konsultasiya berish);

- MChJ “Uzomankapital” (moliyalashtirish va kreditlar taqdim qilish);

“Uzomankapital” kompaniyasi tomonidan iqtisodning turli sektorlarida umumiy miqdori \$190 mln iborat 14 ta investitsion loyiha moliyalashtirilgan.

2015-yil sentyabrda O‘mon Sultonligi tashqi ishlar vazirligi Bosh kotibi Badr bin Hamad al-Busaiydining (2020 yilda O‘mon tashqi ishlar vaziri etib tayinlandi) O‘zbekistonga tashrifi davomida Hukumatlararo qo‘shma komissiyaning 3-yig‘ilishi o‘tkazilgan. Komissiyaning navbatdagi yig‘ilishini Maskat shahrida o‘tkazish ishlab chiqilmoqda.

Ikkala davlat ham “O‘zbekiston, Turkmaniston, O‘mon va Eron hukumatlari o‘rtasida xalqaro transport va tranzit yo‘lini barpo etish to‘g‘risidagi Bitim” (Ashxobod bitimi) ishtirokchilari hisoblanadilar.

Hozirgi kunda O‘zbekiston va O‘mon o‘rtasida havo qatnovi mavjud emas. Shu bilan birga, Navoiy aeroportidan O‘monga yuk tashish bo‘yicha reyslarning yo‘lga qo‘yilishi ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

2018-yil martda O‘mon Sultonligi Meros va madaniyat vaziri Haysam bin Tariq Ol Said boshchiligidagi delegatsiya respublikamizga tashrif buyurib, ushbu mamlakatning moliyaviy ko‘magi asosida qurib bitkizilgan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti yangi binosini ochilish marosimida ishtirok etdi.

O‘mon delegatsiya vakillari O‘zbekistonda o‘tkazib kelinayotgan ko‘plab xalqaro festivallarda ishtirok etib kelmoqdalar. Ular sirasiga “Maqom” (2018 yil 6-10 sentabr, Shahrisabz shahri), “Sharq taronalari” (2019 yil 25-30 avgust, Samarqand shahri) va Hunarmandlar (2019 yil 10-15 sentabr, Qo‘qon shahri) festivali kabilar kiradi. Jumladan, 2019 yil 10-15 sentabr kunlari Qo‘qon shahrida o‘tkazilgan “Xalqaro hunarmandlar” festivalida O‘mon hunarmandchilik davlat qo‘mitasi raisining o‘rinbosari Abdulvahhab al-Munziriy bosh mehmon sifatida ishtirok etgan.

2019-yil 5-14 dekabr kunlari Maskat shahrida chim ustida xokkey bo‘yicha o‘smirlar o‘rtasidagi Osiyo xokkey federatsiyasi kubogi finali uchun saralash musobaqasi O‘zbekiston terma jamoasi ishtirok etgan.

Qozog‘iston va O‘mon o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda o‘rnatalgan bo‘lib, bugunga kelib o‘zaro hurmat, suverenitetga sodiqlik va betaraflik prinsiplariga asoslangan. 2007-yilda Qozog‘iston Musqat shahrida o‘z elchixonasini ochgan, 2010-yilda esa O‘mon Nur-Sultonda (hozirgi Ostona) o‘z diplomatik vakolatxonasini ishga tushirgan.

2022-yil dekabrida Qozog‘iston Tashqi ishlar vaziri Muxtar Tleuberdi va O‘mon tashqi ishlar bo‘yicha davlat vaziri Sayid Badr bin Hamad al-Busaidi o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazildi. Tomonlar BMT doirasida global xavfsizlik, energetika barqarorligi va barqaror rivojlanish borasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni yo‘lga qo‘ygan.

Iqtisodiy hamkorlik Qozog‘iston – O‘mon munosabatlarining asosiy o‘qini tashkil etadi. O‘mon Qozog‘istonning boy xomashyo resurslari va logistik

salohiyatini e'tirof etgan holda savdo, sarmoya va infratuzilma sohalarida yaqin aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor.

2021-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 27,5 million AQSh dollarini tashkil etgan.

O'monning Duqm porti va Qozog'istonning Aktau porti o'rtasida logistik aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha muzokaralar olib borilgan. O'mon investorlari Qozog'istonning qishloq xo'jaligi, qayta ishlash va transport-logistika sohalariga qiziqish bildirgan. 2023-yilda Qozog'iston – O'mon ishbilarmonlar forumi bo'lib o'tdi. "Kazakh Invest" kompaniyasi O'monlik sarmoyadorlarga tegishli loyihalar portfelini taqdim etdi.

Sultonlikning Qozog'iston bilan munosabatlari 2023-yilda yangi boqichga ko'tarildi. 2023-yilning fevral oyida Qozog'iston tashqi ishlar vazirining O'monga ilk tashrifi amalga oshirildi.

Tashrif davomida ikki davlat o'rtasida hukumatlararo komissiya tuzish, tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazish bo'yicha memorandumlar imzolandi.

Qozog'iston tomoni "Astana" moliya markazi xududida islomiy moliyalashtirish markazini barpo etishni taklif etdi.

O'zaro anglashuvni chuqurlashtirishda madaniy va ilmiy sohadagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. O'mon va Qozog'iston islom sivilizatsiyasining boy merosiga ega davlatlar sifatida madaniyatlararo muloqot va diniy bag'rikenglik tamoyillarini ilgari surmoqda. Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi va O'mon Islom ishlar bo'yicha vazirligi o'rtasida diniy ta'lim va konferensiyalar sohasida hamkorlik mavjud. 2022-yilda Ostonada "O'mon islomiy san'ati" ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Unda O'monning tarixiy va madaniy yodgorliklari namoyish etilgan. O'mon universitetlari qozog'istonlik talabalar uchun arab tili, energetika va xalqaro munosabatlar bo'yicha grant dasturlarini taklif qilmoqda.

Qozog'iston va O'mon o'rtasidagi aloqalar hali keng miqyosda rivojlanmagan bo'lsa-da, tomonlar o'zaro manfaatlar va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda bir-birini muhim hamkor sifatida ko'rmoqda. Iqtisodiy diplomatiya, xalqaro tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va madaniy yaqinlik bu ikki davlat aloqalarini mustahkamlovchi asosiy omillardir. Kelajakda O'mon portlari orqali Qozog'iston yuklarini Hind okeaniga olib chiqish, energetika loyihalarida ishtiroy etish va ilmiy hamkorlikni chuqurlashtirish asosiy yo'nalishlar sifatida e'tiborda turadi.

Turkmaniston va O'mon Sultonligi o'rtasidagi aloqalar Markaziy Osiyo va Ko'rfaz mintaqalari o'rtasidagi mintaqalararo hamkorlikni kengaytirishga yo'naltirilgan. Ikkala davlat ham betaraf tashqi siyosat yuritish, suverenitetga qat'iy

rioya qilish, shuningdek, o‘zaro manfaatlarga asoslangan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish tarafdori hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘mon Sultonligining Markaziy Osiyo davlatlariga qaratilgan strategik yondashuviga Turkmaniston alohida o‘rin tutmoqda.

Turkmaniston va O‘mon o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda o‘rnatalgan. Har ikkala davlat ham xalqaro maydonda neytral tashqi siyosat olib borishi bilan ajralib turadi. Bu ularning siyosiy dialogini muvozanatli va konstruktiv asosda olib borishga xizmat qilmoqda.

2023-yil mart oyida O‘mon tashqi ishlar vaziri Sayid Badr bin Hamad al-Busaidi Turkmanistonga rasmiy tashrif buyurdi. Tashrif davomida siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazilib, ikki tomonlama hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Tomonlar BMT, OIC va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga sodiqlik bildirishdi.

Turkmanistonning Kaspiy dengizi bo‘yidagi portlari va O‘monning Hind okeaniga chiqadigan strategik portlari (Duqm, Salalah) o‘rtasidagi transport-logistika integratsiyasi ikki davlat uchun muhim ustuvorliklardan biridir. Bu yo‘nalish Xitoy va Eronni bog‘lovchi yangi “Sharq – G‘arb” transport yo‘lagi konsepsiyasiga mos keladi.

Turkmanbashi xalqaro porti va Duqm porti o‘rtasida yuk almashinuvi va konteyner logistikasini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishuvlar mavjud. O‘mon kompaniyalari Turkmanistonda neft-gaz infratuzilmasi va quyosh energiyasi loyihibarida ishtirok etish istagini bildirgan. “Oman Drydock Company” bilan Turkmaniston kemachilik sohasida hamkorlik qilish masalalari muhokama etilgan.

Turkmaniston va O‘mon o‘rtasidagi aloqalar hozircha cheklangan ko‘rinishda rivojlanayotgan bo‘lsa-da, ularning neytral siyosiy pozitsiyalari, strategik geografiyasi va infratuzilma salohiyatlari hamkorlikni kuchaytirish uchun muhim zamin yaratmoqda. Ayniqsa, logistika, energetika, va madaniy-gumanitar sohalarda o‘zaro manfaatlar ko‘p. Yaqin istiqbolda ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik “ko‘prik” rolini bajarib, Markaziy Osiyo – Ko‘rfaz bog‘lanishini mustahkamlashi mumkin.

Qirg‘iziston Respublikasi va O‘mon Sultonligi o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar hozircha unchalik faol rivojlanmagan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda tomonlar o‘rtasida siyosiy muloqot va iqtisodiy manfaatdorlik asta-sekinlik bilan o‘sib bormoqda. O‘mon Sultonligining Markaziy Osiyoga qiziqishi kuchayib borar ekan, Qirg‘iziston bilan aloqalarni rivojlantirish istiqbollari kengayib bormoqda.

Qirg‘iziston va O‘mon o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1996-yil 8-oktabrda o‘rnatalgan. Ayni paytda ikki davlatda ham doimiy elchixonalar mavjud emas, biroq BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasidagi o‘zaro muloqot davom

etmoqda. O‘zbekiston va Qozog‘istonda akkreditatsiyalangan O‘mon elchixonalari Qirg‘iziston bilan diplomatik aloqalarini yuritishda vositachilik qilmoqda.

2021–2023 yillarda Qirg‘iziston va O‘mon delegatsiyalari xalqaro forumlar (masalan, “Central Asia-Gulf” muloqoti, Islom hamkorlik tashkiloti yig‘inlari) doirasida uchrashuvlar o‘tkazgan. Tomonlar tashqi siyosatda betaraflik, suverenitetga hurmat va mintaqaviy barqarorlik kabi umumiy qadriyatlarga tayanadi.

Bugungi kunda Qirg‘iziston va O‘mon o‘rtasidagi tovar ayriboshlash hajmi nisbatan past darajada qolmoqda. Biroq ikki tomon ham iqtisodiy imkoniyatlarni real baholamoqda, ayniqsa O‘mon tomonidan transport-logistika, turizm va toza energiya sohalarida hamkorlik qilish istagi mavjud.

2022-yilda O‘mon Sultonligining “Duqm” erkin iqtisodiy zonasasi rasmiylari Qirg‘iziston sarmoyadorlarini infratuzilma va savdo loyihamarida ishtirok etishga taklif qilgan. Qirg‘iziston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O‘monni “Markaziy Osiyoning g‘arbgaga chiqish eshigi” sifatida baholagan (2023-yilgi hisobot). Ummon sarmoyadorlari Qirg‘izistondagi gidroenergetika loyihamariga qiziqish bildirgan (ayniqsa, “Toktogul GES modernizatsiyasi”).

Tojikiston va O‘mon o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 2-aprelda o‘rnatalgan. Tomonlar o‘zaro elchixona ochmagan bo‘lsa-da, muloqotlar BMT, Islom Hamkorlik Tashkiloti va boshqa xalqaro maydonlar doirasida olib boriladi. Siyosiy pozitsiyalar jihatidan betaraflik, suveren tenglik va ichki ishlarning daxlsizligi tamoyillariga sodiqlik ikki davlatni yaqinlashtiradi.

2023-yilda Tojikiston tashqi ishlar vaziri Sirojiddin Muhriddin va O‘monlik hamkasbi Sayid Badr bin Hamad al-Busaidi o‘rtasida Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo – Ko‘rfaz” muloqoti doirasida uchrashuv o‘tkazildi. Tomonlar Yaqin Sharqdagi geosiyosiy keskinliklar fonida mo‘tadil va muvozanatli yondashuv tarafdori ekanini tasdiqlashdi.

2022-yilda Duqm erkin iqtisodiy zonasasi vakillari Tojikiston Respublikasi Investitsiyalar va davlat mulkini boshqarish agentligi bilan onlayn forum o‘tkazdi. O‘monning “HydroTech” kompaniyasi Tojikistondagi kichik GES loyihamarini moliyalashtirish bo‘yicha texnik va iqtisodiy asoslar ishlab chiqishda ishtirok etgan (2021). Tojikiston hukumati O‘mon sarmoyadorlariga Nurek va Rogun GES modernizatsiyasida hamkorlik taklif qilgan.

Tojikiston va O‘mon o‘rtasida iqtisodiy aloqalar hali past darajada bo‘lib, 2022-yil holatiga ko‘ra savdo hajmi 5 million AQSh dollaridan oshmagan. Biroq tomonlar o‘zaro manfaatli yo‘nalishlarda - energetika, transport-logistika, qishloq xo‘jaligi va gidrotexnika sohalarida hamkorlik qilish imkoniyatlarini muhokama qilmoqda.

XULOSA

Markaziy Osiyo va Ko‘rfaz arab davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar keyingi yillarda yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ushbu jarayonda O‘mon Sultonligi o‘zining betaraf va mo‘tadil tashqi siyosati, barqaror siyosiy tizimi hamda geostrategik joylashuvi bilan alohida o‘rin egallaydi. Ummonning diplomatik yondashuvi ixtilofli mintaqaviy muammolarga vositachilik qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu mamlakatga Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan barqaror hamkorlik o‘rnatish imkonini bermoqda.

2023-yil 19-iyulda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi yetakchilarining birinchi sammiti bo‘lib o‘tdi va konstruktiv siyosiy muloqotni faollashtirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb jihatlari yuzasidan fikr almashildi.

Siyosiy-diplomatik sohada O‘mon Sultonligi mintaqaviy xavfsizlik va ko‘p tomonlama muloqotni ilgari suruvchi davlat sifatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan turli xalqaro maydonlarda hamkorlik qilmoqda. O‘mon Sultonligining Markaziy Osiyo bilan aloqalari hali rivojlanish bosqichida bo‘lsa-da, ushbu munosabatlar uzoq muddatli strategik hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. Ko‘rfaz davlatlari bilan ikki tomonlama munosabatlar to‘g‘risida ma’lumot. – Toshkent: TIV, 2023.- 24 b.
2. Duqm Port Authority. (2021). Gateway to Central Asia: Port Development Strategy. <https://www.omanobserver.om/article/6026/Business/port-of-duqm-set-for-full-fledged-operations-in-2021>
3. Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC). (2023). Transport Corridor Assessment. ADB Publications. Kyrgyz Republic : Central Asia Regional Economic Cooperation Corridors 1 and 3 Connector Road Project. <https://www.adb.org/projects/48401-007/main>
4. UNCTAD. Foreign Direct Investment Statistics by Country and Sector. - Geneva: United Nations Conference on Trade and Development, 2023.- 48 p.
5. Oman Ministry of Foreign Affairs. Oman Foreign Policy Report. – Muscat: MFA Press, 2022. – 78 p.
6. Qozog‘iston Milliy statistik qo‘mitasi ma’lumotlari. <https://oec.world/en>
7. Omani Foreign Ministry delegation to visit Uzbekistan. <https://tashkenttimes.uz/national/803-omani-foreign-ministry-delegation-to-visit-uzbekistan>



8. O‘zbekiston va Ummon iqtisodiy va diplomatik aloqalarni mustahkamlamoqda.

<https://uz.kursiv.media/uz/2025-02-24/uzbekiston-va-ummon-iqtisodiy-va-diplomatik-alоqalarni-mustahkamlash>

9. Kyrgyz Foreign Minister Makes Historic Official Visit to Oman. <https://russia-islworld.ru/en/novosti//kyrgyz-foreign-minister-makes-historic-official-visit-tooman-2025-02-11-47229>

10. O‘zbekiston Prezidenti Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashiga a’zo mamlakatlar bilan ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qator takliflarni ilgari surdi. <https://president.uz/oz/lists/view/6493>